O‘RTA SINFLARDA TARBIYA FANINING O‘QITISH METODIKASI

Safarova F.I.
GDPI Pedagogika yo‘nalishi 6-24-guruh talabasi

Annotatsiya: ushbu maqolada o‘rta sinflarda tarbiya fanini o‘qitish jarayonining metodikasi yoritilgan.Bu maqolada siz o‘quvchilarga qanday qilib tarbiya fanining tasir etganligi haqida bir qancha ma’lumotlar va kuzatishlar bilan tanishib chiqasiz. Ularning psixologik o‘zgarishlari va holati ham yoritilgan.Ularga samarali metodlar aytib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: tarbiya fanini o‘qitish, O‘rta sinf o‘quvchilari, Psixologik xususiyatlar, Interaktiv metodlar, Innovatsion texnologiyalar, Milliy qadriyatlar, Ijtimoiy mas’uliyat.

Аннотация: в этой статье рассматривается методология преподавания предмета «Трудовое воспитание» в средних школах. В этой статье вы познакомитесь с различными

сведениями и наблюдениями о том, как предмет «Трудовое воспитание» повлиял на учащихся. Также рассматриваются их психологические изменения и состояния. Упоминаются эффективные методы.

Ключевые слова: преподавание воспитания, Ученики средних классов, Психологические особенности, Интерактивные методы, Инновационные технологии, Национальные ценности, Социальная ответственность.

Abstract: this article discusses the methodology of teaching the subject of education in middle schools. In this article, you will become familiar with various insights and observations on how the subject of education has influenced students. Their psychological changes and states are also addressed. Effective methods are mentioned as well.

Key words: teaching upbringing, Middle school students, Psychological characteristics, Interactive methods, Innovative technologies, National values, Social responsibility

KIRISH. Bugungi kunda ta’lim jarayonida nafaqat bilim berish, balki o‘quvchilarning axloqiy, ma’naviy va ijtimoiy rivojlanishini ta’minlash dolzarb masalalardan biridir. Tarbiya fani orqali yosh avlodni ma’naviy jihatdan shakllantirish, ularda umuminsoniy va milliy qadriyatlarni singdirish, ijtimoiy mas’uliyatni rivojlantirish imkoniyatlari mavjud. O‘rta sinf o‘quvchilari tarbiya fanini o‘rganish jarayonida o‘z shaxsiy qiziqishlarini rivojlantiradilar, mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini shakllantiradilar va jamiyat bilan o‘zaro munosabatlarini mustahkamlaydilar. Ushbu maqolada o‘rta sinflarda tarbiya fanini o‘qitishning asosiy metodlari, vositalari va innovatsion yondashuvlar haqida batafsil so‘z yuritiladi. O‘rta yoshda ruhiy jihatdan qanday o‘zgarishlar sodir bo‘lishini va bu vaqtda o‘qituvchidan etiyotkorlik bilan yondashish talab qilinadi. Ulardagi biologik va psixologik o‘zgarishlar balog‘ot vaqtda qanday fe’l atvorga ega bo‘lshiniyam belgilab beradi.

O‘rta sinf o‘quvchilarining psixologik xususiyatlari O‘rta sinf o‘quvchilari 10-14 yosh oralig‘idagi bolalarni o‘z ichiga oladi. Bu davrda ularning psixologik rivojlanish xususiyatlarini inobatga olish muhim.Chunki aynan shu vaqtda bola katta hayotga qadam tashayotgan bo‘ladi va bolalik davridan yetuklik davriga o‘tish o‘quvchining kelajakda qanday fe’l-atvorga ega bo‘lshiga sabab bo‘ladi. Axloqiy qadriyatlarning rivojlanishi: Bolalar ta’lim-tarbiyaga oid tushunchalarni qabul qilib, o‘z xatti-harakatlarini nazorat qilishni o‘rganadilar.Bu ijtimoiy hayotda o‘z o‘rnini topish uchun katta ahamyatga ega bo‘lgan jarayon hisoblanadi. Jamiyatga moslashuv: Bolalar jamiyatdagi turli munosabatlarni tahlil qilib, ularga moslashish ko‘nikmalarini rivojlantiradilar.Psixologik xususiyatlarni hisobga olgan holda tarbiya fanini o‘qitish o‘quvchilarning rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Masalan, o‘qituvchilar bolalar uchun qiziqarli, tushunarli va interaktiv darslarni tashkil etish orqali ularning faolligini oshirishi mumkin. Tarbiya fanini o‘qitish metodlari o‘rta sinflarda tarbiya fanini o‘qitishda quyidagi metodlardan foydalanish samarali hisoblanadi: Interaktiv metodlar: Munozaralar o‘quvchilarga o‘z fikrlarini ifodalash imkonini beradi. Masalan, "Milliy qadriyatlarning yoshlar tarbiyasidagi roli" mavzusida munozara tashkil etish.Bunda tarbiya ta’limda qanday ahamyatga ega ekanligini anglab yetish kerakligi haqida mustaqil o‘rganishga yordam beradi. Muloqot usullari: Tengdoshlar bilan hamkorlikda ishlash orqali fikrlashni rivojlantirish.Bu usulda bolalar o‘zaro aynan tarbiya mavzusida o‘zaro fikr almashadi.Bir biriga bilmaganlarini o‘rgatadi.Muloqot orqali jamiyatda qanday o‘zini tutish mumkunligi o‘rganadi**.**"Aqliy hujum" usuli: Tarbiyaga oid masalalarda yangi

g‘oyalarni ilgari surish ya’ni xar hil hayotiy ko‘p uchraydigan muomolarni o‘zaro fikr almashish orqali yechim toppish. O‘quvchini muomoga moslashish va qanday hal etish kerakligi borasida bilimini oshiradi.

Amaliy metodlar: Hayotiy vaziyatlarni tahlil qilish: O‘quvchilar real hayotda duch keladigan muammolarni yechishga urinadilar. Masalan, ekologik mas’uliyat haqida vaziyatli tahlillar o‘tkazish.Hozirgi kunga kelib bu global muomoga aylanib bormoqda.Yo‘llarda,aholi dam oladigan maskanlarda ko‘pgina bunday muammoga duch kelamiz. Aynan shu muommoga o‘quvchilar bilan birgalikda yechim izlash. Rolli o‘yinlar: Tarbiyaviy mavzularni o‘quvchilarga o‘yin orqali tushuntirish.Oiladagi o‘rniga qarab muammoli vaziyatlar berish va bunday hollarda o‘zini qanday tutish kerakligini sahnaviy ko‘rinish orqali ko‘rsatib berish. Innovatsion metodlar: Texnologiyalarni qo‘llash: Multimedia vositalari orqali mavzuni chuqurroq tushuntirish.Xar hil voqealarni oqibatlarini ko‘rsatish va ularni shaxsiy fikrini olish orqali fikirlashini shakillantiradi. Tarbiya fanida foydalaniladigan vositalar Tarbiya darslarini boyitish uchun quyidagi vositalardan foydalanish mumkin: Audio va video materiallar: Ma’naviyatga oid filmlar, multfilmlar va musiqiy asarlarni qo‘yish orqali o‘quvchilrdan shaxsiy fikrini bilish va uni yanada boyitish.Milliy qadryatlarimiz tarbiyada qanchalik muhimligini ularga anglatish. Ma’naviy adabiyotlar: O‘quvchilarga milliy yozuvchilar va shoirlarning asarlarini o‘qishi orqali oz fikrlashini yanada boyitadi va tarbiyaviy holatini yanada yaxshilashga yordam beradi. Hayotiy misollar**:** Mashhur shaxslarning hikoyalarini keltirish orqali o‘quvchilarni ilhomlantirish.Ularning hayotida yuz bergan turli xil qiyinchiliklar matonati o‘quvchilarda yangicha qarash shakillanadi. Tarbiya fanining mazmunini takomillashtirish Tarbiya fanining mazmunini takomillashtirishda quyidagi tamoyillar muhim hisoblanadi: Milliy qadriyatlar: O‘zlikni tarbiyalashga qaratilgan ma’lumotlarni singdirish.Umuminsoniy qadriyatlar: Tenglik, adolat va insonparvarlik tamoyillarini rivojlantirish.Ijtimoiy mas’uliyat: Ekologiya, jamiyatga xizmat, yordamga muhtojlarga e’tibor.

Xulosalar va tavsiyalar O‘rta sinflarda tarbiya fanini samarali o‘qitish o‘quvchilarning shaxsiy rivojlanishiga katta hissa qo‘shadi. O‘qituvchilarning malakasini oshirish**.** Maxsus seminar va treninglarni tashkil etish.O‘quvchilarga ham yanada tarbiyani yaxshi o‘tkazishga yordam beradi.Turlicha bilmlar orqali o‘qtuvchi o‘quvchilarga turli usula yetkazib bera olishga yordam beradi**.** Innovatsion metodlarni joriy qilish: Zamonaviy vositalar va usullarni darslarda qo‘llash.Rivojlanayotgan vaqtda yoshlar texnalogiyalar bilab bir vaqtda ulg‘ayapti va shu sababli ularga zamonaviy texnalogiyalar bilan dars o‘tish samaraliroq bo‘ladi. Oila va maktab hamkorligini kuchaytirish: Tarbiyaviy jarayonda ota-onalarni faol ishtirok etishga jalb qilinishi krak.O‘qituvchi bolani psixologik o‘zgarish davrida ota-ona bilan birgalikda kelishib tarbiyaviy jihatiga e’tibor berishi zarur.Bu bolani ruhiy holati qiyinchiliksiz shakillanishiga yordam qiladi. Tarbiya fanining o‘qitish metodikasini takomillashtirish orqali yosh avlodning ijtimoiy va ma’naviy rivojlanishiga erishish mumkin.Vatanga bo‘lgan muhabbatni oshirish va bu oiladan boshlanishini ta’lim olish orqali ifoda etilishini ham o‘rgatilishi jamiyatga sog‘lom fikrli inson yetkazishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Anderson, R. (2020). Innovative Methods in Teaching Ethics and Values. Routledge Publishing.
2. Vygotsky, L. S. (1978). Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Harvard University Press.
3. Dewey, J. (1916). Democracy and Education: An Introduction to the Philosophy of Education. The Macmillan Company.